

Surxondaryo viloyatida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi


2025 yil yanvar-dekabr oylari uchun

- I. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi
- II. Surxondaryo viloyati qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi hududlar kesimida
- III. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish
- IV. Chorva mollari va parrandalar bosh soni
- V. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2025 yilning yanvar-dekabr oylarida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi 42 272,0 mlrd. so'mni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar – 41 549,2 mlrd. so'mni, o'rmon xo'jaligi – 510,7 mlrd. so'mni, baliqchilik xo'jaligi – 212,1 mlrd. so'mni tashkil qildi.

Surxondaryo viloyatida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmining o'sish sur'ati



II. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi hududlar kesimida

2025 yilning yanvar-dekabr oylarida hududlar kesimida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining eng yuqori hajmi Denov (6 735,4 mlrd. so'm), Sherobod (4 501,0 mlrd. so'm), Qumqo'rg'on (4 285,2 mlrd. so'm) va Jarqo'rg'on (3 981,1 mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.

Aksincha kam hajmga ega hududlarga Qiziriq (1 717,4 mlrd. so'm), Bandixon (1 343,5 mlrd. so'm) tumanlarini va Termiz shahrini (189,0 mlrd. so'm) keltirib o'tish mumkin.

	Hajm mlrd. so'm	O'sish sur'ati % da
Surxondaryo viloyati	42 272,0	103,8
Termiz shahri	189,0	100,2
Oltinsoy tumani	1 915,2	105,5
Angor tumani	2 516,0	104,5
Bandixon tumani	1 343,5	105,3
Boysun tumani	1 966,8	101,9
Muzrabot tumani	3 040,5	104,7
Denov tumani	6 735,4	103,1
Jarqo'rg'on tumani	3 981,1	101,7
Qumqo'rg'on tumani	4 285,2	103,4
Qiziriq tumani	1 717,4	117,1
Sariosiyo tumani	2 827,7	101,8
Termiz tumani	2 198,1	105,3
Uzun tumani	2 400,9	101,5
Sherobod tumani	4 501,0	103,3
Sho'rchi tumani	2 654,2	102,6

Hududlar bo'yicha qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati tahlil qilinganda, yuqori o'sish sur'atlari Qiziriq (117,1 %), Oltinsoy (105,5 %), Bandixon, Termiz (105,3 %), Muzrabot (104,7 %) va Angor (104,5 %) tumanlarida qayd etildi.

Boshqa hududlarga nisbatan Termiz shahrida (100,2 %), Uzun (102,5 %), Jarqo'rg'on (101,7 %), Sariosiyo (101,8 %), Boysun (101,9 %), Sho'rchi (102,6 %), Denov (103,1 %), Sherobod (103,3 %) va Qumqo'rg'on tumanlarida (103,4 %) esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

III. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish

2025 yilning yanvar-dekabr oylarida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 41 023,8 mlrd. so'mni yoki 2024 yilning mos davriga nisbatan 103,7 % ni, shu jumladan, chorvachilik mahsulotlari 21 298,7 mlrd. so'mni (103,6 %), dehqonchilik mahsulotlari 19 725,1 mlrd. so'mni (103,8 %) tashkil qildi.

Hududlar kesimida qishloq xo'jaligi mahsulotlarining eng yuqori hajmi Denov (6 612,3 mlrd. so'm), Sherobod (4 419,7 mlrd so'm), Qumqo'rg'on (4 196,4 mlrd. so'm) va Jarqo'rg'on (3 932,9 mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.

Aksincha kam hajmga ega hududlarga Termiz shahrini (126,9 mlrd. so'm), Bandixon (1 326,7 mlrd. so'm) va Boysun (1 764,1 mlrd. so'm) tumanlarini keltirib o'tish mumkin.

Yuqori o'sish sur'atlari Qiziriq (116,6 %), Oltinsoy (105,4 %), Bandixon (105,3 %), Termiz (105,1 %), Muzrabot (104,8 %) va Angor (104,6 %) tumanlarida qayd etildi. Termiz shahrida (99,2 %), Uzun (101,4 %), Jarqo'rg'on, Boysun, Sariosiyo (101,8 %), Sho'rchi (102,5 %), Denov (103,0 %), Sherobod (103,3 %) va Qumqo'rg'on tumanlarida (103,4 %), va tumanlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

Yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



Xo'jalik toifalari bo'yicha tahlillar, qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 68,7 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 22,4 % i fermer xo'jaliklariga, 8,9 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

Chorvachilik mahsulotlari yetishtirish

Hududlar kesimida chorvachilik mahsulotlarining eng yuqori hajmi Denov (3 560,6 mlrd. so'm), Qumqo'rg'on (2 352,2 mlrd. so'm), Jarqo'rg'on (2 330,4 mlrd. so'm), Sherobod (1 698,7 mlrd. so'm), Sariosiyo (1 545,0 mlrd. so'm) va Uzun (1 400,1 mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.

Aksincha kam hajmga ega hududlarga Termiz shahri (82,7 mlrd. so'm), Oltinsoy (617,1 mlrd. so'm), Bandixon (692,1 mlrd. so'm) va Qiziriq (936,5 mlrd. so'm) tumanlarini keltirib o'tish mumkin.

Yuqori o'sish sur'atlari Termiz (108,6 %), Denov (104,5 %), Sho'rchi (104,3 %), Bandixon, Qumqo'rg'on (109,9 %) va Muzrabot tumanlarida (103,8 %) qayd etildi. Termiz shahri (100,8 %), Oltinsoy va Uzun (101,8 %), Boysun (101,9 %), Qiziriq (102,3 %), Sherobod (102,5 %), Jarqo'rg'on (103,1 %), Angor (103,3 %) va Sariosiyo tumanlarida (103,4 %) esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

2025 yilning yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 226,3 ming tonna go'sht, 991,6 ming tonna sut, 631,7 mln. dona tuxum, 3 069,0 tonna qirqib olingan jun, 11 666 dona qorako'l teri yetishtirildi va 7 759,7 tonna baliq ovlandi.

Hisobot davrida tirik vaznda yetishtirilgan go'sht hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 102,8 % ni, sog'ib olingan sut – 101,5 % ni, olingan tuxum – 106,3 % ni, qirqib olingan jun – 105,0 % ni, olingan qorako'l teri – 101,6 % ni hamda ovlangan baliqlar – 106,7 % ni tashkil qildi.

2025 yil yanvar-dekabr oylarida yetishtirilgan chorvachilik mahsulotlari to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yetishtirilgan go'shtning umumiy hajmidan 7,2 % i fermer xo'jaliklari hissasiga, 89,8 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 3,0 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim.

Shunga mos ravishda sog'ib olingan sutning 3,4 % i fermer xo'jaliklari, 95,4 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklari, 1,2 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri keldi.

**2025 yil yanvar-dekabr oylarida yetishtirilgan asosiy turdagi
chorvachilik mahsulotlari va ovlangan baliq**

	Yanvar-dekabr 2025 y.	O'sish sur'ati % da
Go'sht (tirik vaznda), ming tonna	226,3	102,8
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	16,4	117,6
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	203,1	103,1
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	6,8	114,8
Sut, ming tonna	991,6	101,5
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	34,0	111,1
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	945,9	101,1
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	11,7	112,8
Tuxum, mln. dona	631,7	106,3
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	57,1	105,1
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	254,7	101,0
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	319,9	111,1
Jun, tonna	3 069	105,0
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	484,0	101,5
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	2 457,0	105,2
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	128,0	114,3
Qorako'l teri, ming dona	11,7	101,6
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	2,1	103,5
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	6,0	100,9
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	3,6	101,7
Baliq, tonna	7 759,7	106,7
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	4 647,9	100,0
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	440,9	102,4

qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi
tashkilotlar

2 670,9

121,8

Shu bilan birga, olingan tuxumning 9,1 % i fermer xo'jaliklariga, 40,3 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 50,6 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi.

Shuningdek, qirqib olingan junning 15,8 % i fermer xo'jaliklari, 80,1 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklari, 4,1 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri keldi.

Bundan tashqari, olingan qorako'l terining 17,7 % i fermer xo'jaliklariga, 51,2 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklari, 31,1 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri keldi.

O'z navbatida, ovlangan baliqlarning 59,9 % i fermer xo'jaliklariga, 5,7 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 34,4 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelganligini qayd etish lozim.

Hududlar kesimida yetishtirilgan asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlari hajmi

	Go'sht (tirik vaznda), tonna	Sut, tonna	Tuxum, ming dona
Surxondaryo viloyati	226 258,0	991 565,0	631 698,0
Termiz shahri	815,7	4 280,1	4 550,5
Oltinsoy tumani	6 462,6	31 601,1	7 107,0
Angor tumani	11 025,6	47 026,0	24 609,0
Bandixon tumani	7 385,3	33 735,9	8 388,7
Boysun tumani	15 591,6	60 506,0	18 034,9
Muzrabot tumani	13 813,8	72 870,9	54 300,3
Denov tumani	38 766,9	147 444,3	143 290,9
Jarqo'rg'on tumani	25 885,8	90 528,9	98 652,7
Qumqo'rg'on tumani	24 404,4	121 659,9	39 008,2
Qiziriq tumani	10 483,2	40 734,8	6 952,9
Sariosiyo tumani	16 478,8	70 546,2	51 199,6
Termiz tumani	11 330,5	50 442,4	101 029,2
Uzun tumani	13 993,0	73 567,9	26 944,3
Sherobod tumani	16 959,2	94 709,4	32 644,4
Sho'rchi tumani	12 861,6	51 911,2	14 985,4

Dehqonchilik mahsulotlarini yetishtirish

Hududlar kesimida dehqonchilik mahsulotlarining eng yuqori hajmi Denov (3 051,7 mlrd. so'm), Sherobod (2 721,0 mlrd. so'm), Qumqo'rg'on (1 844,2 mlrd. so'm), Jarqo'rg'on (1 602,5 mlrd. so'm), Muzrabot (1 597,3 %), Angor (1 427,7 mlrd. so'm) va Sho'rchi (1 382,7 mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi. Aksincha kam hajmga ega hududlarga Termiz shahrini (44,2 mlrd. so'm), Boysun (364,0 mlrd. so'm) va Bandixon (634,6 mlrd. so'm) tumanlarini keltirib o'tish mumkin.

Yuqori o'sish sur'atlari Qiziriq (137,0 %), Oltinsoy (106,8 %), Bandixon (106,5 %), Sherobod (110,2 %), Muzrabot (105,5 %) va Angor (105,4 %) tumanlarida qayd etildi. Termiz shahrida (96,8 %), Jarqo'rg'on, Sariosiyo (100,2 %), Uzun (100,7 %), Sho'rchi (101,2 %), Boysun, Denov (101,6 %), Termiz (101,8 %), Qumqo'rg'on (103,0 %) va Sherobod (103,7 %), va tumanlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

Hududlar kesimida yetishtirilgan jami don va dukkakli don hajmi

	tonna	o'sish sur'ati, % da
Surxondaryo viloyati	888 322,0	116,0
Termiz shahri	358,1	127,6
Oltinsoy tumani	33 256,3	116,4
Angor tumani	60 148,8	105,6
Bandixon tumani	39 821,7	113,8
Boysun tumani	6 361,1	127,8
Muzrabot tumani	146 101,1	106,6
Denov tumani	96 449,5	106,9
Jarqo'rg'on tumani	89 994,2	106,9
Qumqo'rg'on tumani	88 190,7	120,5
Qiziriq tumani	53 053,0	5,0 b.
Sariosiyo tumani	28 740,9	110,2
Termiz tumani	29 720,3	111,1
Uzun tumani	32 833,7	114,0
Sherobod tumani	116 355,2	113,4
Sho'rchi tumani	66 937,4	111,5

Yetishtirilgan jami don va dukkakli don umumiy hajmining eng yuqori ulushi Muzrabot (16,4 %) tumani hissasiga to'g'ri keldi. Shu bilan birga, yuqori ulush Sherobod (13,1 %), Denov

(10,9 %), Jarqo'rg'on (10,1 %), Qumqo'rg'on (9,9 %), Sho'rchi (7,5 %) va Angor (6,8 %) tumanlarida qayd etildi. Past ko'rsatkichlar Boysun (0,7 %) va Sariosiyo tumanlarida (3,2 %) kuzatildi.

2024 yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Qiziriq (5,0 b. ko'p), Boysun tumanida (127,8 %), Termiz shahrida (127,6 %), Qumqo'rg'on (120,0 %) va Oltinsoy (116,4 %) tumanlarida qayd etildi.

Hududlar kesimida yetishtirilgan kartoshka hajmi

	tonna	o'sish sur'ati, % da
Surxondaryo viloyati	394 525,0	96,6
Termiz shahri	1 094,0	113,0
Oltinsoy tumani	18 447,1	92,6
Angor tumani	18 551,6	93,5
Bandixon tumani	9 248,4	95,0
Boysun tumani	6 290,6	88,6
Muzrabot tumani	9 005,7	93,6
Denov tumani	85 177,7	97,7
Jarqo'rg'on tumani	30 172,4	96,6
Qumqo'rg'on tumani	55 995,0	99,1
Qiziriq tumani	5 729,1	89,2
Sariosiyo tumani	26 325,7	97,0
Termiz tumani	10 127,0	98,3
Uzun tumani	32 500,4	95,7
Sherobod tumani	28 192,6	93,6
Sho'rchi tumani	57 667,7	98,8

Yetishtirilgan kartoshka umumiy hajmining eng yuqori ulushi Denov tumani (21,6 %) hissasiga to'g'ri keldi. Shu bilan birga, yuqori ulush Sho'rchi (14,6 %), Qumqo'rg'on (14,2 %), Uzun (8,2 %), Jarqo'rg'on (7,6 %), Sherobod (7,1 %), Sariosiyo (6,7 %), Angor va Oltinsoy tumanlarida (4,7 %) qayd etildi. Past ko'rsatkichlar Termiz shahrida (0,3 %), Qiziriq (1,5 %), Boysun (1,6 %) va Muzrabot tumanlarida (2,3 %) kuzatildi.

2024 yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'ati Termiz shahrida (113,0 %) qayd etildi.

Hududlar kesimida yetishtirilgan sabzavotlar hajmi

	tonna	o'sish sur'ati, % da
Surxondaryo viloyati	1 451 656,0	98,0
Termiz shahri	4 614,4	91,1
Oltinsoy tumani	86 731,5	98,8
Angor tumani	117 469,8	97,3
Bandixon tumani	36 459,3	98,3
Boysun tumani	24 052,4	99,5
Muzrabot tumani	75 505,4	95,4
Denov tumani	249 280,8	99,2
Jarqo'rg'on tumani	110 403,0	98,2
Qumqo'rg'on tumani	122 232,5	98,7
Qiziriq tumani	39 307,3	93,4
Sariosiyo tumani	96 768,1	96,5
Termiz tumani	97 498,7	97,3
Uzun tumani	65 513,6	95,2
Sherobod tumani	224 595,8	100,3
Sho'rchi tumani	101 223,7	96,7

Yetishtirilgan sabzavot umumiy hajmining eng yuqori ulushi Denov tumani (17,2 %) hissasiga to'g'ri keldi. Shu bilan birga, yuqori ulush Sherobod (15,5%), Qumqo'rg'on (8,4 %), Angor (8,1 %), Jarqo'rg'on (7,6 %), Sho'rchi (7,0 %), Sariosiyo va Termiz tumanlarida (6,7 %) qayd etildi. Past ko'rsatkichlar Termiz shahrida (0,3 %), Boysun (1,7 %) va Bandixon tumanlarida (2,5 %) kuzatildi.

2024 yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'ati Sherobod tumanida (100,3 %) qayd etildi.

Hududlar kesimida yetishtirilgan poliz hajmi

	tonna	o'sish sur'ati, % da
Surxondaryo viloyati	379 753,0	106,0
Termiz shahri	101,5	21,9
Oltinsoy tumani	6 829,4	103,8
Angor tumani	31 823,1	173,7
Bandixon tumani	17 454,6	103,4
Boysun tumani	3 711,4	102,2
Muzrabot tumani	41 950,7	101,6
Denov tumani	49 016,4	101,9
Jarqo'rg'on tumani	32 317,0	102,5
Qumqo'rg'on tumani	43 552,8	101,1
Qiziriq tumani	12 799,7	106,7
Sariosiyo tumani	3 734,2	108,2
Termiz tumani	25 570,8	106,2
Uzun tumani	7 720,1	101,7
Sherobod tumani	88 122,7	101,5
Sho'rchi tumani	15 048,6	104,8

Yetishtirilgan poliz umumiy hajmining eng yuqori ulushi Sherobod tumani (23,2 %) hissasiga to'g'ri keldi. Shu bilan birga, yuqori ulush Denov (12,9 %), Qumqo'rg'on (11,5 %), Muzrabot (11,0 %), Jarqo'rg'on (8,5 %), Angor (8,4 %) va Termiz tumanlarida (6,7 %) qayd etildi. Past ko'rsatkichlar Boysun (1,0 %) va Sarosiyo tumanlarida (2,0 %) kuzatildi.

2024 yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Bandixon (173,7 %), Sarosiyo (108,7 %) Qiziriq (106,7 %) va Termiz tumanlarida (106,2 %) qayd etildi.

Hududlar kesimida yetishtirilgan mevalar hajmi

	tonna	o'sish sur'ati, % da
Surxondaryo viloyati	194 837,0	104,8
Termiz shahri	987,3	101,0
Oltinsoy tumani	15 610,9	128,6
Angor tumani	6 802,9	103,2
Bandixon tumani	4 825,3	106,4
Boysun tumani	13 300,4	100,5
Muzrabot tumani	10 007,5	107,0
Denov tumani	24 795,1	100,8
Jarqo'rg'on tumani	11 566,7	102,1
Qumqo'rg'on tumani	15 619,7	101,3
Qiziriq tumani	3 920,8	103,4
Sariosiyo tumani	29 153,2	101,0
Termiz tumani	8 496,7	107,0
Uzun tumani	9 807,3	102,8
Sherobod tumani	30 286,2	107,8
Sho'rchi tumani	9 657,0	101,3

Yetishtirilgan mevalar umumiy hajmining eng yuqori ulushi Sherobod tumani (15,5 %) hissasiga to'g'ri keldi. Shu bilan birga, yuqori ulush Sariosiyo (15,0 %), Denov (12,7 %), Qumqo'rg'on va Oltinsoy (8,0 %), Boysun (6,8 %), va Jarqo'rg'on tumanlarida (5,9 %) qayd etildi. Past ko'rsatkichlar Termiz shahrida (0,5 %), Qiziriq (2,0 %) va Bandixon tumanlarida (2,5 %) kuzatildi.

2024 yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Oltinsoy (128,6 %), Sherobod (107,8 %), Muzrabot, Termiz (107,0 %) va Bandixon tumanlarida (106,4 %) qayd etildi.

Hududlar kesimida yetishtirilgan uzum hajmi

	tonna	o'sish sur'ati, % da
Surxondaryo viloyati	94 443,0	103,6
Termiz shahri	56,7	99,4
Oltinsoy tumani	33 003,3	105,9
Angor tumani	4 392,7	100,8
Bandixon tumani	2 621,6	98,6
Boysun tumani	5 932,8	101,2
Muzrabot tumani	2 760,3	100,5
Denov tumani	17 880,0	100,3
Jarqo'rg'on tumani	4 582,8	103,3
Qumqo'rg'on tumani	9 705,3	105,2
Qiziriq tumani	2 137,2	100,0
Sariosiyo tumani	3 821,6	102,7
Termiz tumani	1 649,8	119,4
Uzun tumani	2 131,1	101,6
Sherobod tumani	2 857,2	101,1
Sho'rchi tumani	910,6	145,6

Yetishtirilgan poliz umumiy hajmining eng yuqori ulushi Oltinsoy tumani (34,9 %) hissasiga to'g'ri keldi. Shu bilan birga, yuqori ulush Denov (18,9 %), Qumqo'rg'on (10,3 %), Boysun (6,3 %), Jarqo'rg'on (4,9 %), Angor (4,7 %) va Sariosiyo tumanlarida (4,0 %) qayd etildi. Past ko'rsatkichlar Termiz shahrida (0,1 %), Sho'rchi (1,0 %) va Termiz tumanida (1,7 %) kuzatildi.

2024 yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'ati Sho'rchi (145,6 %), Termiz (119,4 %), Oltinsoy (105,9 %) va Qumqo'rg'on tumanida (105,2 %) qayd etildi.

IV. Chorva mollari va parrandalar bosh soni

2026 yilning 1 yanvar holatiga barcha toifadagi xo'jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni 1 101,0 ming boshga yetdi, (2025 yilning 1 yanvar holatiga nisbatan 1,0 % ga ko'p), sigirlar 402,2 ming boshga, qo'y va echkilar 2 675,1 ming boshga (1,0 % ga ko'p), parrandalar 5 804,1 ming boshga (2,8 % ga ko'p) yetdi.



**2026 yilning 1 yanvar holatiga xo'jaliklar toifalari bo'yicha
chorva mollari va parrandalar bosh soni**

	Ming bosh	O'sish sur'ati, % da
Yirik shoxli qoramollar	1 101,0	101,0
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	72,7	101,3
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	1 001,6	100,7
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	26,7	113,6
Shundan sigirlar	402,2	100,0
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	28,2	101,1
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	365,7	99,8
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	8,3	106,4
Qo'y va echkilar	2 675,1	101,0
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	540,5	101,6
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	2 039,5	100,2
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	95,1	114,9
Otlar	17,5	103,9
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	5,4	100,9
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	11,3	104,4
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	0,8	118,3
Parrandalar	5 804,1	102,8
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	668,7	79,2
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	2 660,8	100,4
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	2 464,6	115,1

2026 yilning 1 yanvar holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 6,6 % i fermer xo'jaliklari hissasiga, 91,0 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 2,4 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim, shunga mos

ravishda sigirlarning umumiy sonidan 7,0 % i fermer xo'jaliklariga, 90,9 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 2,1 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi, shuningdek, qo'y va echkilarning umumiy sonidan 20,2 % i fermer xo'jaliklariga, 76,2 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 3,6 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi, parrandalar umumiy sonidan 11,5 % i fermer xo'jaliklariga, 46,0 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 42,5 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi.

**2026 yilning 1 yanvar holatiga hududlar kesimida
chorva mollari va parrandalar bosh soni**

	Yirik shoxli qoramollar	Qo'y va echkilar	Parrandalar
Surxondaryo viloyati	1 101,0	2 675,1	5 804,1
Termiz shahri	9,5	21,3	34,1
Oltinsoy tumani	56	115,4	215,2
Angor tumani	45,5	85,7	257,4
Bandixon tumani	34,5	73,8	87,3
Boysun tumani	51,1	389,3	265,1
Muzrabot tumani	59,8	75,9	498,5
Denov tumani	190,6	246,4	1 004,4
Jarqo'rg'on tumani	84,8	271,8	599,2
Qumqo'rg'on tumani	128,2	285,2	409,8
Qiziriq tumani	43,6	55,1	114,2
Sariosiyo tumani	87,2	234,5	490,7
Termiz tumani	51,5	111,7	729,7
Uzun tumani	84,8	198,2	358,8
Sherobod tumani	78,6	321,7	295,2
Sho'rchi tumani	95,3	189,1	444,5

V. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarish hajmi– sohada o'z iste'moli va sotish uchun yaratilgan mahsulot va xizmatlarning umumiy qiymati. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishi dehqonchilik va chorvachilik mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishi, ovchilik xo'jaligida, o'rmonchilik va yog'och tayyorlash, baliq ovlash va akvakultura sohasida yetishtirilgan mahsulot (xizmat)lar qiymati asosida shakllantiriladi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari– hisobot davrida fermer xo'jaliklarida, dehqon va tomorqa xo'jaliklarida hamda qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda yetishtirilgan dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining jami qiymatini belgilab, qishloq xo'jaligida mahsulot yetishtirishning umumiy hajmini ifodalaydi.

Fermer xo'jaligi – ijaraga berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo'jaligi mahsulotini yetishtirish hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa faoliyat turlari bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlik subyektidir.

Dehqon xo'jaligi – meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish yoki ijara (ikkilamchi ijara) huquqi asosida dehqon xo'jaligi boshlig'iga berilgan yer uchastkasida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishni va realizatsiya qilishni dehqon xo'jaligi a'zolarining mehnati asosida amalga oshiruvchi xo'jalikdir.

Tomorqa xo'jaligi – shaxsiy tomorqa yer uchastkalarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ham erkin savdo uchun, ham oila ehtiyojlari uchun yetishtirish (qayta ishlash) bilan bog'liq mehnat faoliyatidir.

Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar – qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchi, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga xizmat qiluvchi, xo'jalik yuritish jarayonida yerga hamda boshqa ishlab chiqarish mulklariga egalik qiluvchi yuridik shaxs huquqiga ega xo'jalik yurituvchi subyekt hisoblanadi.

Mollar bosh soni– xo'jalik toifalari bo'yicha barcha yosh guruhlaridagi asosiy turdagi chorva mollarini o'z ichiga oladi (yirik shoxli qoramollar, shu jumladan sigirlar, qo'y va echkilar, cho'chqalar va h.k.)

Go'sht yetishtirish– so'yish uchun sotilgan hamda o'z xo'jaligida so'yilgan barcha turdagi qishloq xo'jaligi hayvonlari va parrandalarning tirik vaznini o'z ichiga oladi.

Sut yetishtirish– yosh mollarga ichirish uchun sog'ib olingan sut va og'iz sutini qo'shgan holda, haqiqatda sog'ib olingan sigir, echki, qo'y, biya va tuya sutlari bilan aniqlanadi. Buzoqlar emgan sut yalpi sog'ib olishga kiritilmaydi.

Tuxum yetishtirish– barcha turdagi parrandalardan olingan hamda kurk tovuqlar bilan va inkubatorlarda jo'ja ochish uchun sarflangan tuxumlar miqdorini o'z ichiga oladi.

Metama'lumot uchun havola:

<https://lib.stat.uz/uz/features/qishloq-xo-jaligi-va-ekologiya/685-qishloq-o-rmon-va-baliqchilik-xo-jaligi-mahsulot-xizmat-lari-yalpi-ishlab-chiqarishini-hisoblash-bo-yicha-uslubiy-nizom-2>

Tayyorlash uchun mas'ul:

Qishloq xo'jaligi va atrof-muhit
statistikasi bo'limi

55 451-80-00 (7610)
